



## O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA FORSCHA-TOJIKCHA SO'ZLARDAN O'ZLASHGAN KASB-HUNAR ATAMALARI

Ermo'minova Maftuna G'ofurovna

TerDPI 2-bosqich magistranti, Termiz, O'zbekiston

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasiga fors-tojik tilidan o'zlashgan ba'zi kasb-hunar atamalari haqida ma'lumot keltiriladi. Kasb-hunar atamalarining qo'llanishi ma'lum nutqiy vaziyatni taqazo etadi. Fors-tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan kasb-hunar atamalarining izohi sifatida ma'lum misollar keltirilib, uning leksik-semantik jihatidan ahamiyati ushbu misollar yordamida dalillanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili leksikasi, atama, kasb-hunarga oid yondashuv, leksik –semantik jihat.

Kasb-hunar atamalari sirasida fors-tojikcha atamalar ham ko'p uchraydi. Soha terminologiyasida mazkur til birliklarining bo'lishini tilshunoslarimiz tojik xalqi bilan azaldan qo'shni bo'lib kelganligimiz deb izohlanadi, shuning uchun o'zbek va tojik xalalari o'rtasida savdo-sotiq aloqalari muntazam amalga oshirilganligini aytishadi. O'zbek tilining turli tarixiy davrlarida qo'llanib kelgan kasb-hunar atamalari sof fors-tojikcha yoki fors-tojikcha qismga o'zbekcha yoki arabcha qismlar qo'shilib hosil bo'lganlari ham uchraydi. Sof fors-tojikcha kasb-hunar terminlarining lingvistik tahlili va tavsifi bilan tanishamiz.

Abzal-(fors. – asbob, ish quroli) – 1) ishlash, yasashda foydalaniladigan asbob: sartaoshlik Abzallari – ustara, qayroq, oyna va boshqa; duradgorlik Abzallari – tesha, poytesha, randa, arra va boshqa; 2) ot-arava Abzallari – egar, yugan, bo'yinturuq va boshqalar<sup>39</sup>.

Andaza (fors. – o'lchov, qolip) – namuna, nusxa. Qog'oz, karton va hokazodan maxsus tayyorlanadi. Matodan kiyim, charmdan poyabzal bichish kabi ishlarda shakl ko'chirish uchun ishlatiladi<sup>40</sup>.

Andava (fors-toj. andova, ando – somonli loy suvash) – suvoq ishlarida suvalayotgan sathni tekislash, silliqlash, rax chiqarish uchun ishla-tiladigan quruvchilik asbobi. Asosan temirdan (ba'zan, taxtadan) uzunligi 30 – 40 sm, eni 8–10 sm, qalinligi 2 mm, uch tomoni ensizroq qilib yasaladi. Yarim yey shaklidagi dastasi bo'ladi<sup>41</sup>.

Kunda-fors-tojikcha. Ustida biror narsani chopish, qirqish uchun qilingan maxsus g'o'la<sup>42</sup>.

Mirob-suv taqsimoti va sug'orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs.

Bastakor-ananaviy ,mumtoz musiqa asarlari ijodchisi;kompazitor.<sup>43</sup>

Duradgor-yog'ochdan imorat va boshqa har xil buyumlar yasovchi hunarmand , usta<sup>44</sup>.

<sup>39</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

<sup>40</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

<sup>41</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

<sup>42</sup> O'zbek tilining etimologik lug'ati. Ikkinchi jild.

<sup>43</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. -T-2006.

<sup>44</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. -T-2006.



Shogird-biror usta, mutaxassis, olimdan kasb, bilim o'rganayotgan shaxs.<sup>45</sup>

Sozanda- milliy musiqa asboblarining birida mashq qiluvchi musiqachi.<sup>46</sup>

Ustoz- kasb- hunar, ilm o'rgatuvchi; o'qituvchi muallim<sup>47</sup>.

Chavandoz- chap qo'l bilan o'q (kamon) otuvchi; chapdast, mohir.

Ot choptirish, uloq choptirish, otda o'ynash san'atini egallagan odam<sup>48</sup>.

Hamshira- shifoxonada ishlovchi, o'rta tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan xodim<sup>49</sup>.

Tilimizda fors –tojik tilidan o'zlashgan kasb-hunar atamalarini ko'plab uchratish mumkin: band, buranda, buma, gazan, galabur, gardan, gardish, gira, girvon gudoz, gul, gungura dazgir, dam, dandon, daska, daxan, dor, dori, javak, jazopil, jilo, jiga, jodi, jom, zambarak, zanjir, zar, zeb, zex, zok, zulpun, iskana, iskanja, iskart, ispara, isfilon, kark, kokil, kunda, kural, lab, manak, miyno, mix, muzd, muri, muhr, nay, nayza, nishon, moxun, ombir, nay, payvand, padla, panjara, parda, pardoz, pesh, parak'yp, poy, poshna, po'lat, suzon, mapou, maxma, mur, mob, toj, chang, charxchilik, chok, shogird, shox kabi.

Shunday qilib, kasb-hunar atamalarida o'zbekcha, ruscha, inglizcha, arabcha, fors –tojikcha, lotincha atamalar mavjud. Til o'z-o'zidan rivojlanib boyib bormaydi. Boshqa tillarga ham murojaat qiladi. Tilimizga yaxshi singgigan va o'rinli kirgan kasb-hunar atamalarini siqib chiqarmasligimiz zarur. O'zlashma atamalarning aksariyati arabcha, fors-tojik atamaları o'zbek tilining tarixida qo'llanilgan bo'lib, hozirgi vaqtda anchagina qismi iste'moldan chiqib ketgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. -T-2006.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. -T-2006.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. -T-2006.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. -T-2006.
5. S.Ibrohimov. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. Toshkent-1959. 64-110-betlar.
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
7. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Ikkinchi jild.

<sup>45</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. -T-2006.

<sup>46</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. -T-2006.

<sup>47</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. -T-2006.

<sup>48</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. -T-2006.

<sup>49</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. -T-2006.